

## YANGI DAVLAT BOSHQARUVINING NAZARIY-HUQUQIY TALQINI VA YANGI O‘ZBEKISTONDA BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH JIHATLARI

*Saxatov Sanjar Sunnatillayevich*

*O‘zbekiston davlat pedagogika universiteti magistranti*

[\*sanjarsaxatov1990@gmail.com\*](mailto:sanjarsaxatov1990@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada yangi davlat boshqaruvi konsepsiyasining nazariy shakllanish jarayoni, huquqiy mazmuni hamda Yangi O‘zbekiston sharoitida boshqaruv tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari ilmiy tahlil qilinadi. Xorijiy davlatlar tajribasi asosida davlat xizmatlari sifatini oshirish, fuqarolarga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini rivojlantirish, raqamli boshqaruvning samaradorligi hamda O‘zbekiston Respublikasida bu sohada olib borilayotgan islohotlarning mohiyati ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *yangi davlat boshqaruvi, boshqaruv islohotlari, huquqiy asos, raqamli transformatsiya, davlat xizmati, samaradorlik, javobgarlik, Yangi O‘zbekiston.*

**Аннотация.** *В данной статье проводится научный анализ процесса теоретического формирования новой концепции государственного управления, ее правового содержания и приоритетных направлений совершенствования системы управления в условиях Нового Узбекистана. На основе опыта зарубежных стран раскрываются вопросы повышения качества государственных услуг, развития ориентированной на гражданина системы управления, эффективности цифрового управления и сущность реформ, проводимых в этой области в Республике Узбекистан.*

**Ключевые слова:** *Новое государственное управление, реформы управления, правовая база, цифровая трансформация, государственная служба, эффективность, подотчетность, Новый Узбекистан.*

**Abstract.** *This article scientifically analyzes the process of theoretical formation of the new concept of public administration, its legal content, and priority areas for improving the management system in the conditions of New Uzbekistan. Based on the experience of foreign countries, the issues of improving the quality of public services, developing a citizen-oriented management system, the effectiveness of digital management, and the essence of the reforms being carried out in this area in the Republic of Uzbekistan are revealed.*

**Keywords:** *new public administration, governance reforms, legal framework, digital transformation, civil service, efficiency, accountability, New Uzbekistan.*

XXI asrda davlat boshqaruvi tizimi inson kapitali, texnologiya va samaradorlik tushunchalari bilan chambarchas bog‘lanib ketdi. Zamonaviy davlatning samaradorligi endilikda nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar, balki fuqarolarning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchi, ularning manfaatlari va ehtiyojlariga nechog‘lik tez va sifatli javob berilishiga qarab baholanadi.

Shu nuqtai nazardan, dunyo amaliyotida “Yangi davlat boshqaruvi” – New Public Management — NPM konsepsiyasi davlat faoliyatiga xususiy sektor tamoyillarini joriy etish orqali boshqaruvni modernizatsiya qilishga qaratilgan eng samarali nazariyalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Mazkur yondashuv 1980–1990-yillarda Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Avstraliya va AQSHda shakllanib, keyinchalik Yevropa va Osiyo mamlakatlarida keng tatbiq etildi. Uning asosiy maqsadi — davlatni og‘ir byurokratik apparat emas, balki, fuqarolarga sifatli xizmat ko‘rsatuvchi, natijaga yo‘naltirilgan va hisobdor tizimga aylantirishdir. O‘zbekiston ham bu yo‘nalishda mustahkam qadam tashlamoqda.

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, “Ma‘muriy islohotlar to‘g‘risidagi konsepsiya”, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun va boshqa me‘yoriy hujjatlar NPM tamoyillarini milliy huquqiy maydonga olib kirgan.

Yangi davlat boshqaruvi nazariyasi asosan G. Osborn va T. Gaebler tomonidan ilgari surilgan “Reinventing Government” asarida shakllangan. Ular davlat boshqaruvini “boshqaruvchi hukumat”dan “xizmat ko‘rsatuvchi hukumat”ga aylantirish zarurligini ta’kidlagan.

Bu konsepsiyaning nazariy poydevori bir nechta ilmiy yo‘nalishlarga asoslanadi:

- Menejment nazariyasi — natija va samaradorlikka e’tibor berish, strategik rejalashtirish va mas’uliyatni kuchaytirish;
- Iqtisodiy liberalizm — davlat aralashuvini kamaytirish, xususiy sektor mexanizmlarini qo‘llash;
- Neoinstitutsionalizm — davlat institutlarining moslashuvchanligi, ochiqligi va javobgarligini ta’minlash;
- Jamoatchilik ishtiroki nazariyasi — fuqarolarning boshqaruv jarayonida faol ishtirokini rag‘batlantirish.

Demak, yangi davlat boshqaruvi nafaqat iqtisodiy islohot, balki siyosiy-demokratik yangilanish, huquqiy modernizatsiya va ijtimoiy mas’uliyat tizimi sifatida qaraladi.

XX asrning ko‘p qismida amalda bo‘lgan an’anaviy davlat boshqaruvi modeli Maks Veberning byurokratik nazariyasiga asoslangan edi. Bu tizimda qat’iy iyerarxiya, markazlashgan nazorat, qoidalarga so‘zsiz rioya etish ustuvor bo‘lgan. Biroq, bunday model zamonaviy jamiyat talablariga javob bermay qoldi; tez

o‘zgarayotgan muhit, raqamli iqtisodiyot va global raqobat sharoitida bunday qotib qolgan tizim samarasiz edi.

Yangi davlat boshqaruvi esa boshqaruvni natijadorlik, hisobdorlik, moslashuvchanlik va fuqaroga xizmat ko‘rsatish tamoyillari asosida qayta qurishni taklif qiladi. Masalan, ilgari davlat “fuqarolarga buyruq beruvchi” roliga bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi yondashuvda u “xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot” sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon “mijozga yo‘naltirilgan boshqaruv” sifatida NPMning markaziy g‘oyasidir.

Yangi davlat boshqaruvi g‘oyasi huquqiy asos bilan mustahkamlansa, u barqaror natija beradi. Shu jihatdan, O‘zbekistonda oxirgi yillarda NPM tamoyillarini huquqiy jihatdan mustahkamlash yo‘lida qator qonun va farmonlar qabul qilindi.

Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda inson qadri, ijtimoiy adolat va davlatning xizmat ko‘rsatish majburiyati asosiy tamoyil sifatida mustahkamlab qo‘yilgan. “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun orqali davlat xizmatchilarining kasbiy malakasi, natija uchun javobgarligi va ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinishi tartibi belgilandi.

“Ma‘muriy islohotlar to‘g‘risidagi konsepsiya” davlat apparatini soddalashtirish, ortiqcha bo‘g‘inlarni qisqartirish va xizmatlar sifatini oshirishni maqsad qilgan. Ushbu huquqiy asoslar NPM tamoyillarini — ochiqlik, shaffoflik, javobgarlik va natijadorlikni milliy boshqaruv tizimida huquqiy darajada mustahkamlaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida davlat boshqaruvi islohotlari yangi bosqichga ko‘tarildi. “Yangi O‘zbekiston – inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat” konsepsiyasi aynan NPM g‘oyalariga mos holda shakllantirilmoqda. Asosiy yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

- Davlat xizmatlarini soddalashtirish – “bir darcha” tamoyili asosida xizmatlar “my.gov.uz” orqali masofadan taqdim etilmoqda.
- Byurokriyani qisqartirish – qaror qabul qilish vakolatlari joylarga topshirilmoqda.
- Davlat boshqaruvida ochiqlik – “Ochiq ma‘lumotlar portali” orqali shaffoflik ta‘minlanmoqda.
- Meritokratiya tizimini joriy etish – lavozimga tayinlashda kasbiy bilim va natijalar asosiy mezon bo‘lmoqda.
- Raqamli boshqaruv – sun‘iy intellekt, “Big Data” va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari orqali samaradorlik oshirilmoqda.

Shuningdek, “Hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish”, “Mahalla tizimini mustahkamlash”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi” faoliyati orqali davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch mustahkamlanmoqda.

Yangi davlat boshqaruvi konsepsiyasi davlatni zamonaviylashtirish, fuqarolarga yoʻnaltirilgan boshqaruv tizimini yaratish, raqamli xizmatlar orqali samaradorlikni oshirish yoʻlida global miqyosda oʻzini oqlagan yondashuvdir.

Oʻzbekiston tajribasi shuni koʻrsatmoqdaki, yangi boshqaruv modeli davlat idoralari xalq manfaatiga xizmat qiluvchi mexanizmga aylantirishga xizmat qilmoqda. Shu bois, quyidagi takliflar dolzarb:

- NPM tamoyillarini yanada chuqurlashtirish uchun “Ochiq hukumat toʻgʻrisida” alohida qonunni qabul qilish;
- Davlat xizmatchilarini menejerlik koʻnikmalariga oʻqitish tizimini mustahkamlash;
- Raqamli boshqaruv infratuzilmasini xalqaro standartlarga moslashtirish;
- Jamoatchilik nazoratini kengaytirish, fuqarolarning boshqaruv jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish;
- Natijadorlikka asoslangan byudjet tizimini yanada rivojlantirish.

Yangi davlat boshqaruvi nazariyasi Oʻzbekistonning demokratik rivojlanishida, inson huquqlarini taʼminlashda va boshqaruvni xalq manfaatlariga mos holda takomillashtirishda eng muhim konseptual yoʻnalishlardan biri boʻlib qoladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Denhardt J., Denhardt R. “The New Public Service: Serving, Not Steering”. – Routledge, 2015.
2. Hood C. A “Public Management for All Seasons?” Public Administration. – 1991.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi Oʻzbekiston strategiyasi”. –Toshkent: Oʻzbekiston, 2021.
4. Osborne D., Gaebler T. “Reinventing Government”. – Addison-Wesley, 1992. “Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”. 2023-yil tahriri.
5. Pollitt C., Bouckaert G. “Public Management Reform”. – Oxford University Press, 2017.
6. Oʻzbekiston Respublikasi “Davlat fuqarolik xizmati toʻgʻrisida”gi Qonun, 2022-yil.
7. Oʻzbekiston Respublikasi “Maʼmuriy islohotlar toʻgʻrisidagi konsepsiya”, 2017-yil.